

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi:

№ 109

2025 -yil " 29 " 04

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlar bo'yicha prorektor

Dj. Sultanov

2025 -yil " 29 " 04



IQTISODIY SIYOSAT

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400 000-	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000-	Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410100-	Iqtisodiyot

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi IQS1305		O'quv yili 2025-2026	Semestr 3	Kreditlar 5	
Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili o'zbek/rus/ingliz		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Iqtisodiy siyosat	60	90	150	
2.	<p>I. Fanning mazmuni Fanning maqsadi: "Iqtisodiy siyosat" fanining asosiy maqsadi – talabalarni davlatning iqtisodiy faoliyatdagi rolini tizimli va tanqidiy yondashuv asosida tushunishga yo'naltirish, makroiqtisodiy muvozanat, tartibga solish mexanizmlari va institutsional islohotlar orqali iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositalarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Fan doirasida talabalar real iqtisodiy muammolarni davlat siyosati nuqtai nazaridan tahlil qilish, iqtisodiy siyosat vositalarining samaradorligini baholash va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.</p> <p>Fanning mazmuni: Mazkur fan bo'yicha iqtisodiy siyosatning nazariy asoslari, tarixiy evolyutsiyasi, institutsional asoslari hamda makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajadagi amaliy yo'nalishlari chuqur o'rganiladi. Unda fiskal siyosat, monetar siyosat, bandlik siyosati, inflyatsiyani jilovlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy siyosat, byudjet tartibi, soliq-budjet muvozanati, iqtisodiy inqirozlarga qarshi siyosat, globalizatsiya sharoitida milliy iqtisodiy xavfsizlik kabi dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi. Fan zamonaviy empirik ma'lumotlar, xalqaro indekslar, davlat siyosatining real misollari asosida interaktiv tarzda o'qitiladi.</p> <p>Fanning vazifalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talabalarni iqtisodiy siyosatning nazariy maktablari va yo'nalishlari bilan tanishtirish; - davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, tartibga solish va bozor mexanizmlarining o'zaro aloqadorligini tahlil qilish malakasini 				

shakllantirish;

- real iqtisodiy muammolar (ishsizlik, inflyatsiya, o'sish, tengsizlik) yechimida siyosiy vositalarning rolini baholay olish kompetensiyasini rivojlantirish;

- empirik ma'lumotlar va amaliy holatlar asosida siyosat samaradorligini baholash, statistik va modellashtirish vositalaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;

- tahlil natijalarini ilmiy asoslangan tarzda talqin qilish va davlat siyosatini shakllantirishda asosli takliflar berish salohiyatini oshirish.

II.Asosiy nazariy qism.(Ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Iqtisodiy siyosatga kirish va siyosiy ehtiyojlarni baholash

Iqtisodiy siyosat tushunchasi va uning tarixiy shakllanishi, asosiy maqsadi va vazifalari. Davlatning iqtisodiyotdagi roli va aralashuv darajalari. Siyosiy ehtiyojlar tushunchasi va ularning shakllanish omillari.

2-mavzu. Bozor muvaffaqiyatsizligi va davlatning aralashuvi

Bozor muvaffaqiyatsizligi tushunchasi va uning asosiy sabablari. Tashqi effektlar va jamoat tovarlari muammosi. Asimmetrik axborot va bozor kuchining cheklanishi. Bozor muvaffaqiyatsizligini bartaraf etishda davlatning iqtisodiy aralashuvi vositalari va ularning samaradorligi.

3-mavzu. Shartnomalar, grantlar va hamkorlik shartnomalari

Shartnomalar tushunchasi va ularning iqtisodiy faoliyatdagi o'ri. Grantlar — moliyaviy yordam shakli sifatida, ularning turlari va ajratish tartibi. Hamkorlik shartnomalari va ularning davlat, xususiy sektor hamda xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni shakllantirishdagi roli.

4-mavzu. O'zgarish nazariyalari va dasturlarni loyihalash

O'zgarish nazariyalari tushunchasi va ularning asosiy yondashuvlari. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda o'zgarishlarni boshqarish modeli. Loyihalash jarayonida strategik maqsadlarni aniqlash va natijaviy ko'rsatkichlarni belgilash. Dasturlarni rejalashtirishda monitoring, baholash va moslashuvchanlik tamoyillari.

5-mavzu. Loyihalarni amalga oshirish

Loyiha boshqaruvi va amalga oshirish bosqichlari. Resurslarni taqsimlash, vaqtni boshqarish va byudjet nazorati. Ijro jarayonida manfaatdor tomonlar

bilan muloqot va risklarni boshqarish. Amalga oshirishdagi nazorat, hisobot va tahlil mexanizmlari.

6-mavzu. Loyihani monitoring rejasi

Monitoring tushunchasi va uning loyihani boshqarishdagi ahamiyati. Monitoring rejasi tuzish bosqichlari: maqsad, indikatorlar, ma'lumot yig'ish usullari va javobgarlik. Davriy kuzatuv va baholash orqali loyihaning samaradorligini aniqlash. Monitoring natijalarini tahlil qilish va qarorlar qabul qilishda qo'llash.

7-mavzu. Loyihalarni ijro qilish faoliyati va uni tashkillashtirish

Loyihalarni ijro qilishning mazmuni va vazifalari. Ijro faoliyatini rejalashtirish va vaqt bo'yicha boshqarish. Jamoani shakllantirish, rollarni taqsimlash va mas'uliyatni belgilash. Operativ boshqaruv, muammolarni aniqlash va ularni tezkor bartaraf etish usullari.

8-mavzu. Loyiha jarayonlarni baholash

Baholash tushunchasi va uning loyihani boshqarishdagi o'imi. Baholash turlari: oraliq, yakuniy va ta'sir bahosi. Baholash mezonlari: samaradorlik, tejamkorlik, natijadorlik va barqarorlik. Ma'lumot yig'ish usullari, tahlil qilish vositalari va xulosalarni amaliy qarorlarga aylantirish mexanizmi.

9-mavzu. Loyiha ta'sirini baholashda miqdoriy usullar

Miqdoriy baholash usullarining mohiyati va afzalliklari. Statistik tahlil, regressiya modeli, t-test, chi-kvadrat testi va boshqa empirik usullarni qo'llash. Indikatorlar orqali ta'simi o'lchash va natijalarni solishtirish. Miqdoriy ma'lumotlarga asoslangan baholash natijalarini qaror qabul qilishda qo'llash.

10-mavzu. Loyiha ta'sirini baholashda sifat usulini qo'llash

Sifat baholash usullarining mohiyati va zarurati. Intervyu, fokus-guruhlar, kuzatuv va hujjatli tahlil metodlari. Loyihaning ijtimoiy, madaniy va institutsional ta'sirlarini chuqur anglash. Sifat tahlil natijalarini umumlashtirish va strategik qarorlar qabul qilishda foydalanish.

11-mavzu. Loyiha ta'sirini baholashda aralash usulni qo'llash

Aralash (miqdoriy va sifat) baholash usullarining kombinatsiyasi va afzalliklari. Miqdoriy indikatorlar bilan sifat jihatlarni uyg'unlashtirish. Komplementar ma'lumotlar orqali loyiha ta'sirini chuqur va ko'p qirrali baholash. Aralash yondashuvni loyihalash, amalga oshirish va natijalarni

tahlil qilish bosqichlari.

12-mavzu. Hisobotni ishlab chiqish, tarqatish amaliyoti va dasturni tuzatish

Monitoring va baholash natijalarini umumlashtirish asosida yakuniy hisobot tayyorlash. Hisobotning tuzilmasi: kirish, metodologiya, topilmalar, xulosa va tavsiyalar. Hisobotni manfaatdor tomonlarga yetkazish va kommunikatsiya strategiyasi. Olingan natijalar asosida loyihani tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni tuzatish va dasturni takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ishlab chiqish.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Iqtisodiy siyosatga kirish va siyosiy ehtiyojlarni baholash (ball va koeffitsiyentlar orqali)

2-mavzu. Bozor muvaffaqiyatsizligi va davlatning aralashuvini tahlil qilish

3-mavzu. Shartnomalar, grantlar va hamkorlik shartnomalarini shakllantirish va talablariga rioya qilish

4-mavzu. O'zgarish nazariyalari va dasturlarni loyihalash, ularni raqamti qo'llash

5-mavzu. Loyihalarni bosqichlari va taktikalar orqali amalga oshirish

6-mavzu. Loyihani monitoring rejasi va u asosida faoliyat olib borish samaradorligi

7-mavzu. Loyihalarni ijro qilish faoliyati va uni tashkillashtirish, muammolarni bartaraf etish amaliyoti

8-mavzu. Loyiha jarayonlarni baholash, risklarni bartaraf etish

9-mavzu. Loyiha ta'sirini baholashda miqdoriy usullar orqali tahlil qilish

10-mavzu. Loyiha ta'sirini baholashda sifat usulini qo'llash amaliyoti

11-mavzu. Loyiha ta'sirini baholashda aralash usulni qo'llash xususiyatlari asosida qarorlar qabul qilish

12-mavzu. Hisobotni ishlab chiqish, tarqatish amaliyoti va dasturni tuzatish

Amaliy mashg'ulotlar bir akademik guruhda, shu guruh uchun birlashtirilgan o'qituvchi tomonidan olib borilishi lozim bo'lib, mashg'ulotlar jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan faol va interfaol o'qitish usullari qo'llanilishi zarur. Bunda kichik guruhlarda ishlash, keys-stadiylar, statistik dasturlar bilan amaliy ishlanmalar, jamoaviy

muhokama va taqdimotlar kabi metodlardan samarali foydalanish ko'zda tutiladi. Mashg'ulotlar zamonaviy pedagogik yondashuvlar va tegishli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) integratsiyalashgan holda tashkil etilishi, o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantirishiga xizmat qilishi maqsadga muvofiqdir.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining metodik rahbarligi va doimiy nazorati ostida "Iqtisodiy siyosat" faniga oid nazariy bilimlarni mustaqil chuqurlashtirish, siyosiy-iqtisodiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda zamonaviy iqtisodiy muammolarni turli nazariy yondashuvlar asosida baholash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur fan doirasida talabalar iqtisodiy siyosatning nazariy maktablari, davlat aralashuvi vositalari, bozor samaradorligi, ijtimoiy adolat va global iqtisodiy siyosat masalalari bo'yicha chuqur tahlil va mustaqil izlanish olib borishlari lozim. Mustaqil ishlar asosan quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Mustaqil ish shakllari:

Fan mavzularini chuqur o'rganish uchun zamonaviy siyosiy-iqtisodiy nazariyalar, klassik va yangi maktablar (neoklassik, keynschilik, neoliberalizm, institutsionalizm) asosida ilmiy maqolalar, darsliklar, siyosiy sharhlar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari asosida nazariy tahlillar olib borish;

Real siyosiy-iqtisodiy muammolarni tahlil qilish uchun amaliy keystadiilar ishlab chiqish: davlat budjeti, soliq siyosati, inflyatsiya va ishsizlikka oid siyosiy qarorlarning ta'sirini o'rganish;

Iqtisodiy siyosatga oid statistik ma'lumotlar bilan ishlash, masalan: davlat qarzi, daromadlar tengsizligi yoki savdo balansi kabi ko'rsatkichlarni tahlil qilish va ularning siyosiy talqinini yozma tarzda ifodalash;

Xalqaro iqtisodiy siyosatni o'rganish: Xalqaro valyuta jamg'armasi, JST, Jahon banki kabi tashkilotlarning siyosiy-iqtisodiy siyosatdagi rolini mustaqil o'rganib, izchil talqin qilish;

Ilmiy-tahliliy ishlanmalar: mavzuga oid dolzarb masalalarni qamrab oluvchi ilmiy maqolalar, monografiyalar, tadqiqot hisobotlari yoki xalqaro reyting agentliklari tahlillarini sharhlash va xulosa chiqarish;

Referat, konspekt, taqdimot (prezentatsiya) va ilmiy-analitik hisobotlar tayyorlash, ular asosida seminar yoki muhokama mashg'ulotlarida faol ishtirok etish;

Interaktiv uslublardan foydalanish: siyosiy iqtisodga oid muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o'yinlar (policy simulation), guruhiy tahlil mashg'ulotlarida qatnashish;

Masofaviy ta'lim platformalari orqali fan bo'yicha alohida modullarni mustaqil o'zlashtirish va natijalarni elektron shaklda topshirish.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etish uchun o'quv dasturida kafedra tomonidan yozma ko'rsatmalar, metodik qo'llanmalar va tavsiya etilgan mavzular ro'yxati taqdim etiladi. Har bir talaba mustaqil ish davomida nazariy bilimlarni tahliliy fikrlash bilan uyg'unlashtirgan holda, amaliy siyosiy-iqtisodiy muammolarni modellashtirish va baholashga o'rgatiladi.

Yakuniy natijalar taqdimot (prezentatsiya) yoki ilmiy yozma hisobot shaklida topshiriladi va belgilangan mezonlar asosida baholanadi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Iqtisodiy siyosat va uning zamonaviy talqinlari: nazariya va amaliyot
2. Davlatning iqtisodiyotdagi roli: samaradorlik va adolat o'rtasida muvozanat
3. Bozor muvaffaqiyatsizliklari va ularni bartaraf etishda davlat aralashuvi
4. Pareto samaradorligi va davlat siyosatining mosligi
5. Fiskal siyosat: iqtisodiy barqarorlikka ta'sir va moliyaviy intizom
6. Davlat xarajatlari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik
7. Soliq siyosatining taqsimotga va rag'batlarga ta'siri
8. Davlat qarzi: makroiqtisodiy barqarorlik uchun tahdidmi yoki zaruratmi?
9. Monetar siyosatning inflyatsiya va iqtisodiy faollikka ta'siri
10. Markaziy bank mustaqilligi va siyosiy bosimlar
11. Neoklassik va keynsiy yondashuvlar: iqtisodiy siyosatga ta'sir taqqoslamasi
12. Neoliberal siyosat: ijobiy va salbiy oqibatlar
13. Institutsional iqtisodiyot: iqtisodiy siyosatdagi samarali boshqaruv mezonlari
14. Iqtisodiy tengsizlikka qarshi siyosiy yondashuvlar: qayta taqsimlash vositalari
15. Ijtimoiy himoya tizimlari va ijtimoiy adolat: siyosiy- iqtisodiy yondashuv
16. Mehnat bozori siyosati: ishsizlikka qarshi samarali choralar
17. Iqtisodiy siyosatning iste'molchi xatti-harakatiga ta'siri
18. Global moliyaviy tizim va xalqaro iqtisodiy siyosat institutsiyalari (XMF, JST, Jahon banki)
19. Valyuta kursi siyosati va uning tashqi savdoga ta'siri

	<p>20. Xalqaro savdo siyosati: erkinlik va proteksionizm o'rtasida</p> <p>21. Davlatlararo iqtisodiy integratsiya: Yevroittifoq va boshqa mintaqaviy bloklar misolida</p> <p>22. Iqlim o'zgarishiga qarshi iqtisodiy siyosat: yashil iqtisodiyot konsepsiyasi</p> <p>23. Migratsiya oqimlari va iqtisodiy siyosatga integratsion yondashuvlar</p> <p>24. Postpandemiya iqtisodiy siyosati: tiklanish strategiyalari va moliyaviy ta'sir</p> <p>25. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat siyosatining transformatsiyasi</p>
3.	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).</p> <p>“Iqtisodiy siyosat” fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan talaba quyidagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari, vositalari va davlat aralashuvining nazariy asoslarini tushunish, xususan fiskal va monetar siyosatning iqtisodiy barqarorlikka ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qila olish; - turli siyosiy iqtisodiy yondashuvlar (neoliberalizm, keynschilik, institutsionalizm) asosida siyosiy qarorlarning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini baholay olish; - bozor mexanizmi, bozor muvaffaqiyatsizliklari va Pareto samaradorligi kabi tushunchalarni chuqur anglash, ular bilan bog'liq siyosiy choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash; - daromadlar tengsizligi, ijtimoiy adolat, qayta taqsimlash siyosatlari va ijtimoiy himoya vositalarining iqtisodiy va siyosiy asoslarini tushunish hamda ularni amaliy misollar asosida talqin qila olish; - davlat byudjeti, davlat xarajatlari va soliq siyosatining iqtisodiy faoliyatga ta'sirini tahlil qilish, budjet defitsiti va davlat qarzining fiskal barqarorlikka ta'sirini asoslab berish; - xalqaro savdo siyosati, valyuta kursi rejimlari, to'lov balansi va xalqaro iqtisodiy institutlarning (XMF, JST, Jahon banki) siyosiy-iktisodiy roli haqida puxta bilimga ega bo'lish; - iqlim o'zgarishi, migratsiya, raqamli transformatsiya kabi global muammolarga javoban ishlab chiqilgan siyosiy strategiyalarni tahlil qilish va ularning iqtisodiy oqibatlarini baholash; - statistik va empirik ma'lumotlar asosida siyosiy qarorlarni baholashga yo'naltirilgan mustaqil tahliloy loyihalarni amalga oshirish: muammo qo'yish, nazariy asos yaratish, siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish va yakuniy hisobot tayyorlash; - siyosiy-iqtisodiy tahlil natijalarini og'zaki va yozma shaklda, turli auditoriyalar uchun (ilmiy, siyosiy, ijtimoiy) dalillarga asoslangan, tushunarli va ta'sirchan tarzda taqdim eta olish.

4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> * ma'ruzalar; * interfaol keys-stadilar; * seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); * guruhlarda ishlash; * individual loyihalar; * taqdimotlar qilish.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Talabning fan bo'yicha kredit olishi quyidagi shartlarning bajarilishiga bog'liq: fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, statistik va iqtisodiy tahlil natijalarini aniq, izchil va dalillarga asoslangan tarzda ifodalay olish, o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlarga nisbatan mustaqil fikr yurita olish hamda statistik xulosalarni iqtisodiy kontekstda talqin etish. Shuningdek, talaba joriy va oraliq nazoratlar doirasida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatti bajarishi, amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etishi, hamkorlikda va mustaqil ishlash ko'nikmasini namoyon qilishi, yakuniy nazoratda esa test sinovi va yozma ish orqali bilim va kompetensiyalarini isbotlashi lozim. Ushbu shartlar asosida talaba fanni muvaffaqiyatli yakunlab, belgilangan kreditlarni olish huquqiga ega bo'ladi.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Benassy-Quere, A., Coeure, B., Jacquet, P. & Pisani-Ferry, J., (2010). Economic Policy: Theory and Practice. Oxford University Press. 7A 2. OECD (2021), Applying Evaluation Criteria Thoughtfully, OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/543e84ed-en. 3A 3. Fink, A. (2015, 3rd edition). Evaluation fundamentals: Insights into program effectiveness, quality, and value. SAGE Publications 3A <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 4. Rodrik, D. (2011). The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy. W. W. Norton & Company. 5. Acemoglu, D. & Robinson, J. (2012). Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Crown Publishing. 6. Friedman, M. (2002). Capitalism and Freedom. University of Chicago Press. 7. Piketty, T. (2014). Capital in the Twenty-First Century. Harvard University Press. 8. Mazzucato, M. (2013). The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. Anthem Press. 9. Streeck, W. (2014). Buying Time: The Delayed Crisis of Democratic



	<p>Capitalism. Verso.</p> <p>10. Krugman, P. (2009). The Return of Depression Economics and the Crisis of 2008. W. W. Norton.</p> <p>11. Blyth, M. (2013). Austerity: The History of a Dangerous Idea. Oxford University Press.</p> <p>12. OECD, IMF, World Bank, UNCTAD – yillik iqtisodiy siyosat tahlillari va ma'lumotnomalari (o'zbek tilida sharhlar orqali foydalanish mumkin).</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari:</p> <p>13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_siyosat</p> <p>14. https://ebook.tsue.uz/public/ebooks/davlat-iqtisodiyoti-va-siyosati-tNS74PSm</p> <p>15. https://www.kun.uz/changelang/</p> <p>16. https://dictionary.tsue.uz/soz/IQTISODIY-SIYOSAT</p> <p>17. https://lex.uz/docs/-4147294</p> <p>18. https://www.youtube.com/watch?v=e4fYOj9zdVQ</p>
7. 8/9/750/750	Mazkur o'quv dastur universitet Kengashining 2025-yil 29.04. dagi - son bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sullar: Bobojonova Z.Sh.- "AKT sohasida iqtisodiyot" kafedrası v.b. dotsenti
	Taqrizchilar: G.K.Taraxtiyeva - TDTU "Sanoat iqtisodiyoti va menejment" kafedrası i.f.d, dotsenti D.X. Xudaynazarova- "AKT sohasida iqtisodiyot" kafedrası PhD v.b. dotsenti

